

**ALEKSANDR FAYNBERG — MADANIYATLAR SUHBATINI  
BOSHLAGAN SHOIR**

***Sulhonberdiyeva Mushtariy Shuxrat qizi***

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti*

*1-bosqich talabasi*

***E-mail: [sulhonberdiyevam@gmail.com](mailto:sulhonberdiyevam@gmail.com)***

***Annotatsiya.*** Mazkur maqolada Aleksandr Faynberg ijodi madaniyatlararo muloqot, adabiy identitet va tarjima nazariyasi kontekstida keng qamrovli tahlil qilinadi. Shoirning rus tilida ijod qilgan holda o‘zbek madaniy makoniga chuqur singib ketgani, Toshkent obrazini estetik va ma’naviy fazoga aylantirgani, hamda tarjimonlik faoliyati orqali ikki adabiy an’ana o‘rtasida barqaror muloqot yaratgani ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Ushbu maqolada Faynberg ijodi milliy chegaralardan ustun turuvchi estetik hodisa ekani asoslab beriladi.

***Kalit so‘zlar:*** madaniyatlararo kommunikatsiya, adabiy identitet, tarjima nazariyasi, urban poetika, insonparvarlik estetika.

XX asr o‘zbek va rus adabiyotida madaniyatlararo muloqot masalasi ko‘pincha ramziy yoki nazariy darajada ko‘tarilgan. Ammo Aleksandr Faynberg ijodi bu hodisani amaliy va poetik darajaga olib chiqqan. U nafaqat ikki tilni — rus va o‘zbekni — bog‘lagan, balki ikki madaniyat o‘rtasida jonli estetik suhbatni boshlagan shoir sifatida tarixga kirgan. Faynbergning ijodiy yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, u madaniyatlararo muloqotni faqat ko‘prik sifatida emas, balki ikki dunyoqarash, ikki ruhiy makon o‘rtasida dialog sifatida qabul qilgan. Shoirning she’riyati orqali o‘quvchi nafaqat turli madaniyatlarning obrazlarini kuzatadi, balki ularning ruhiy va estetik uyg‘unligini his qiladi.

Tarixiy va madaniy tarafdin adibning ijodiy ishariga yuzlanadigan bo‘lsak, Faynberg XX asrning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitida shakllangan, ammo o‘sha davr adabiyoti nafaqat estetik, balki ma’naviy mas’uliyat ham yuklagan bo‘lishiga qaramay, ko‘pmillatli Toshkent muhiti shoir dunyoqarashini kengaytirishga salmoqli hissa qo‘shgan. Turli mentalitetlar uyg‘unlashgan makonda yashash uning poetikasida bag‘rikenglik va ochiqlikni shakllantiradi. Shu tarixiy sharoit Faynbergning ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.



Faynberg o‘zining she’riy va tarjima faoliyati orqali madaniyatlar o‘rtasidagi jonli dialogni boshladi. U rus tilida yozgan bo‘lsa-da, o‘zbek madaniyati va ruhiy makonini chuqur his qilgan. Shu sababli uning she’riyatida Toshkent shunchaki manzara yoki geografik joy sifatida emas, balki madaniy va estetik muloqot maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Bu o‘quvchiga ikki madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni va o‘zaro anglashuvni his qilish imkonini beradi. Tarixiy jihatdan, Faynberg ijodi milliy va siyosiy chegaralarning qat’iy bo‘lgan davrida yuzaga keldi.

U madaniyatlararo suhbatni milliy identitet va til chegaralarini oshib o‘tadigan vosita sifatida yaratdi. Bu esa shoirni faqat tarjimon yoki adabiy mediator emas, balki madaniyatlararo dialogning boshlovchisi sifatida qadrlashga asos bo‘ladi desak mubolag‘ bo‘lmaydi. Madaniy kontekst ham muhim ahamiyatga ega. Faynberg Toshkentning ko‘pmillatli muhitidan ilhomlanib, turli xalqlar o‘rtasida badiiy va ruhiy uyg‘unlikni izlashga intildi. Shu orqali u she’riyatni faqat estetik san’at emas, balki xalqlararo estetik suhbat vositasiga aylantirdi. Tarjima jarayonida ham shoir maqsadi shunchaki matnni ko‘chirish emas, balki madaniyatlararo tafovutlarni tushunishga va uyg‘unlashtirishga xizmat qilish edi. Natijada Faynberg ijodi tarixiy va madaniy kontekst orqali nafaqat ikki adabiy makon o‘rtasidagi ko‘prik, balki madaniyatlararo jonli suhbatning boshlanishi sifatida talqin qilinadi. U o‘quvchini ikki dunyoqarash, ikki ruhiy makon va ikki adabiy an’ani bir vaqtning o‘zida his qilishga chorlaydi, bu esa uni o‘z davrida va bugungi kunda ham noyob shoir sifatida ajratib turadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Aleksandr Faynberg ijodida milliy va lirik chegaralar qat’iy chiziqlarga ega emas. Uning she’riyati o‘z mohiyatiga ko‘ra transmadaniy hodisa bo‘lib, unda rus she’riyatining klassik intizomi va intellektual salmog‘i Sharqning lirik mushohadasi bilan uyg‘unlashib ketadi. Bu shunchaki ikki uslubning yonma-yon kelishi emas, balki chuqur mazmunga ega madaniy sintezdir. Shuningdek, Faynberg rus poetik an’analari, xususan, "Kumush davr" va rus mumtoz maktabi zaminida voyaga yetdi. Biroq uning ijodiy "men"i O‘zbekiston tuprog‘ida, uning quyoshi va odamlari orasida shakllandi. Natijada, shoirda sharqona obrazlilik shakllandi va ijodining ajralmas qismiga aylandi. Shoir misralarida cho‘l nafasi, shahar chekkasidagi sokin ko‘chalar va o‘zbekona choyxonalar shunchaki dekoratsiya emas, balki lirik qahramonning ichki kechinmalari ifodasiga aylandi. Anyniqsa, Faynberg o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan



andisha, mehmondostlik va samimiyatni rus tilining elastik imkoniyatlari orqali ifoda eta olgani tahsinga loyiqdir.

Shoir yaratgan yangi estetik olamda kitobxon bir vaqtning o‘zida ham G‘arbiy ratsionalizmni, ham Sharqona intuitiv idrokni his qiladi. Bu sintez jarayonida yangi identitet yuzaga keladi: u nafaqat rusiyzabon shoir, balki o‘zbek ruhini ich-ichidan his qilgan, Navoiy va Pushkinni bitta ma’naviy kenglikda birlashtira olgan ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi. Qisqacha aytganda, Faynberg she’riyati — bu Toshkentning ko‘p millatli ruhini o‘zida jamlagan rangli vitraj kabidir. Unda ranglar turlicha, ammo nur bitta. Shoir she’riyatida Toshkent oddiy manzara emas, balki ruhiy makondir. U shaharni tarixiy xotira, insoniy sabr va bag‘rikenglik timsoli sifatida tasvirlaydi. Urban poetika nuqtai nazaridan bu yondashuv shaharni universal obraz darajasiga ko‘targan.

Faynbergning o‘zbek adabiyoti namunalarini rus tiliga o‘girishdagi betakror mahorati shunchaki lisoniy jarayon emas, balki ikki adabiy makon o‘rtasidagi estetik masofani qisqartirgan ruhiy ko‘prikdir. U tarjimada so‘zning tashqi qobig‘idan ko‘ra, asarning ichki ruhini va milliy bo‘yog‘ini saqlashga intildi, bu esa uning o‘z ijodi markazida turuvchi shaxsiyat konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liq. Shoir uchun tarjima ham, original ijod ham, avvalo, insoniy vijdon, ichki erkinlik va ma’naviy poklik masalalariga borib taqaladi. Faynberg talqinida erkinlik tashqi siyosiy tushuncha emas, balki har qanday milliy yoki mafkuraviy chegaralardan ustun turuvchi ruhiy mustaqillikdir. Binobarin, uning tarjimalarida o‘zbek she’riyatining nafaqat shakli, balki o‘sha erkin ruhga tashna inson qalbi rusiyzabon kitobxon uchun ham o‘z qadrdonidek yaqin va tushunarli bo‘lib qoladi.

Bugungi shiddatli globallashuv va madaniy transformatsiyalar davrida Aleksandr Faynberg qoldirgan adabiy meros shunchaki she’riyat emas, balki xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va chuqur anglashuvning yuksak namunasi. Shoir ijodi o‘zbek va rus madaniyatlari chorrahasida barpo etilgan o‘ziga xos "ma’naviy ko‘priq" bo‘lib, u yosh avlod uchun haqiqiy bag‘rikenglik (tolerantlik) va insoniylik sabog‘ini beradi. Faynberg o‘z asarlari va betakror tarjimalari orqali ikki xalq o‘rtasida to‘xtovsiz davom etuvchi jonli muloqotni shakllantirdi. Uning "o‘zbekona ruhli rus shoiri" sifatidagi siymosi adabiyotning chegara bilmas kuchini, insoniy qadriyatlarning esa millat va tildan ustunligini yana bir bor isbotlaydi. Shu boisdan ham, Aleksandr Faynberg merosi bugungi kunda nafaqat adabiy fakt, balki



jamiyatimizda ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi jonli qadriyat sifatida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Faynberg, A. Izbrannoe. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2008.
2. Faynberg, A. Stixi i perevody. Toshkent: O'zbekiston, 2012.
3. Karimov, N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Rasulov, A. Adabiyot va madaniyatlararo muloqot nazariyasi. Toshkent: Fan, 2016.
5. Hall, E. T. The Silent Language. New York: Anchor Books, 1976.
6. Bhabha, H. K. The Location of Culture. London: Routledge, 1994.



---

Research Science and  
Innovation House

